

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th May, 2023

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

MUHAMMAD YUSUF SHERLARINING TARBIYAVIY MOHIYATI

Joldasova Yulduz Alliyarovna

Nukus shahar 1-son ayrim fanlar chuqur o`qitiladigan sinflari mavjud umumiy o`rta ta`lim mакtabining o`zbek tili fani o`qituvchisi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada yoshlarni Muhammad Yusuf shaxsiyatiga va bijodiga hurmat va ehtiromini oshirish, uning she'riyatiga qiziqtirish, fanga, adabiyotga, kitob o`qishga havas uyg`otish, yoshlarni vatanparvarlik, xalqparvarlik va milliy ruhda tarbiyalash masalasiga e'tibor qaratilgan. Shoирning "Vatan", "Vatanim" kabi she'rlaridagi ona-Vatan madhi o'ziga xos tasvir uslubida bayon etilgani misollar asosida aniqlangan. Qolaversa, shoир she'riyatining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlarini ochib berish nazarda tutilgan.

Kalit so`z: vatan,yuz, ko`z, soch, samimiylit, ruhiyat, milliiylik ,shakl va mazmun, fonetik uslub, lisoniy birlik, badiiyat, ritm, uslubiyat, "Vatan", "Vatanim".

Chinakam shoирning qalbida sohir qush doimo sayrab turadi, degan gapni ko`p bora eshitgandik. O`sha qush aynan Muhammadjon yuragiga oshyon qurbaniga men astoydil ishonganman. Uning ko`zлari ham, chehrasi ham hamisha latif bir xonish qilganday edi.

Abdulla Oripov

O`zbekiston qahramoni

Darhaqiqat sevimli shoirimiz Abdulla Oripov ta'kidlaganidek shoир yuragi muhabbatga limmo-lim qo`shiqlarga to`la edi.Bu qo`shiq esa bulbul ovozidek mayin har uyda har qalbda yangramoqda.O`zbekiston diyorining sevimli farzandi xalqona she'rlari bilan yosh-u qarining ko`nglidan birdek joy olgan adib Muhammad Yusuf 1954-yilning 26-aprelida Andijon viloyatining Marhamat tumani Qovunchi qishlog`ida tavallud topdi.Shoир ijodiga bir nazar tashlar ekanmiz undagi samimiyyat so`zlarning soda va tushunarli ekanligi boshqa shoirlar she'rlarida uncha munchaga uchramaydigan vazminlik,yuraklarni titroqqa soladigan misralar bizni beixtiyor she'riyat olamiga diltortar navolar sari eltadi.Birgina "Vatanim" she'rini o`qigan kitobxon qalbida tug`ilgan go`shani onaga,singilga o`xshatgan emas yoki vatanning tol beshikdan boshlanishini faqat

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th May, 2023

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

shu ijodkorgina o'z asarida ilk bor qo'llagan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, shoir Vatan haqidagi she'rlarining ko'pchiligidagi Vatanni onaga,singilga va opaga mengzadi. Masalan, "Vatanim"2 she'rda:

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga,
Singlim deymi,
Onam deymi,
Hamdard-u hamhonam deymi,
Oftobdan ham o'zing mehri,
Ilig'imsan Vatanim.

Shoir Vatan timsolini singlisida, onasida ko'radi. Ona – buyuklarning eng buyugi, ulug'larning eng ulug'i, suyukli zotlarning eng suyuklisidir. Ba'zan bu so'zga ta'rif berishga ojiz qolasan kishi. Bu nomga shoir-u yozuvchilarimiz o'z ijod namunalarida munosib baho aytgan allalarchalik, ular bedor o'tkazgan tunlarchalik nazm bitmasligi mumkin, biroq imkon qadar onani vasp etadi. Ana shuday buyuk zot timsolida shoir Vatanni ko'radi. Darhaqiqt, bolaning ilk qadamini ko'rgan ona uchun bundan-da ortiq quvonch bo'lmaydi. Shoirning "Ona tilim" she'rda esa tariximiz haqida qalblarni larzaga soluvchi ta'sirli misralar joy olgan.

Kimdir mayda millat bo'ldi, kimdir katta,
Katta millat — Afandisi yo'qdir hatto,
Biz piyoda, biz boqqanlar yurdi otda,
Zulm o'tsa faqat sendan o'tdi zulm,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Muhammad Yusuf xalqona she'rlar yozgani uchun ham xalq shoiri. Shoir she'rlarida milliylik,o't mishga sodiq an'analar ham joy olgan.

Milliyligi shundaki, u bir xalqning ma'naviy dunyosi, o'y -xayollari, madaniyatini qamrab oladi. Biz mehmondo'st, to'y-hashamlarni sevadigan, topgan

tutganini kelganlar oldiga sochadigan xalqmiz. To'ylarimizda shunday udum bor, uzatilayotgan qiz ota uyini tark etayotganida ko'z yosh to'kadi. Farzand ota-onasi bag`rida o'sib voyaga yetadi, butun mehrini ota-onasi, opa-singil, aka-ukaga

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th May, 2023

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

beradi, shuning uchun qizlarga oilasini tark etish og`ir bo`ladi. Shoир mazkur she`rida shunday yozadi:

Yomg`ir emas, bu xalqob

Kelinchak ko`z yoshidir.

Yig`lama yor, qiz bola

Ijodkor boshqa bir she`rida «O`zbeklarga ayb sanalar faqat kelin yig`lamasa to`yi kuni» degan mulohazalarni aytadi. Aynan shu o`rinlarda milliy ruh yaqqol ifoda etiladi. Har bir millat o`zi yashayotgan joy va zamonda o`ziga xos tartibda amal qilib yashar ekan, u boshqa millat vakillaridan shunisi bilan farqlanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: “Mayli, yoshlar o`z davrining talablari bilan uyg`un bo`lsin. Lekin ayni paytda o`zligini ham unutmasin”. Ya`ni yurtboshimiz inson kim ekanligini, qanday ulug` zotlarning avlodи ekanligini esidan chiqarmasligini va bu so`zlar ularning qalbida hamisha aks-sado berib turishi lozimligini ta`kidlaydi. Demak, har bir xatti-harakatimizda o`zbekona ruh sezilib turmog`i kerak. Buyuk munaqqid Ozod Sharafiddinov ta`biri bilan aytganda, “Kamdan kam tug`iladigan iste’dod egasi” bo`lgan Muhammad Yusuf o`z she`rlarini xuddi ana shu ruh bilan sug`ordi. Shoирning umri qisqa, biroq abadiy yashaydigan xalqona she`rlari insonlarga milliy o`zlikni anglash hissini, faxr va g`ururlanish xislatlarini shakllantirishga xizmat qiladi, har bir nafasimizda «men o`zbekman » degan muqaddas tuyg`uni muhrlaydi.

XULOSA

Har bir insonning Vatani o`ziga qadrli. Shoир uchun uning har hovuch tuprog`I ko`ziga to`tiyodir. Shoир Muhammad Yusuf qalami bitgan, Vatanga, onaga, jamiki ezgu tushunchalarga bag`ishlagan o`tli misralari kitobxon nazdida, shoир siymosida chaqmoqdek yonib o`tgan shoир-u betakror she`riyat doim xalq ardog`ida bo`lajagiga umid bilan boqishga chorlab turaveradi

Vatan madhi uchun so`zni quroл qilgan shoир Muhammad Yusuf xalqi va jonajon vatanining ertasi bilan kun-u tunlarni o`tkazgan. Kelajak avlodlar esa shunday ulug` allomalar, shoirlar yurtida yashayotganidan faxrlansa arziydi. Sababi o`zbek xalqi boy o`tmishga, milliy an`ana va samimiylikka, qalbi muhabbatga to`la xalqdir.

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th May, 2023

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 M.Yusuf. Ulug'imsan Vatanim. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B. 9.
- 2 M.Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 275
- 3.Ahmad S. Yo‘qotganlarim va topganlarim. – Toshkent, 2000. – B. 67.
4. Sharafiddinov O. Ma’naviy kamolot yo’llari. – Toshkent, 2001. – B. 26.
5. Mirvaliyev S., Shokirov R. O’zbek adiblari. – Toshkent, 2007. – B. 240.